OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

OCHILOV HASAN AMRULLAYEVICH

OLIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA RAHBAR KADRLAR BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 378:37.07:004

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Ochilov Hasan Amrullayevich
Oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish…….....3

Очилов Хасан Амруллаевич
Совершенствование управленческой компетентности руководящих кадров в условиях цифровизации высшего образования.....23

Ochilov Khasan Amrullayevich
Improving managerial competence of managerial personnel in the context of digitalization of higher education 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications.....51

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

OCHILOV HASAN AMRULLAYEVICH

OLIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA RAHBAR KADRLAR BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8495 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) tayyorlangan hamda Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.bimm.uz) va ZiyoNET axborot-ta’lim portalida (www.bimm.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Djurayev Akbar Salimovich** Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Matnazarova Mexribon Baxtiyor qizi** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
	Adashboyev Shavqiddin Mixriddinovich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universsiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “__” ___ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20, faks: (99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20, faks: (99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “___” _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

N.K.Haqnazarova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.d. (DSc)

Ya.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tendensiya shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. BMTning “2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDGs)da ta’lim tizimi rahbar kadrlarining moslashuvchan va maxsus kompetensiyalar tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarurligi qayd etib o‘tilgan. AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarda oliy ta’lim rahbarlari uchun kompetensiyaviy modellarga asoslangan malaka talablari joriy etilgan bo‘lib, ular doirasida raqamli boshqaruv, strategik rejalashtirish va data-driven qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi coaching va trening dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga keng joriy etilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta’limning jadal raqamlashuvi sharoitida rahbar kadrlar egallagan kompetensiyalar bilan raqamli boshqaruv talablari o‘rtasida nomuvofiqlik saqlanib qolmoqda, malaka oshirish dasturlari esa raqamli transformatsiya sur’atidan ortda qolmoqda. Shu bois oliy ta’lim rahbarlarining raqamli boshqaruv kompetentligini uzluksiz takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dunyoda oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, Angliya, AQSh, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlarning ilmiy markazlari va universitetlarida raqamli liderlik, ma’lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqaruv qarorlarini qabul qilish, rahbar kadrlarning kompetensiyaviy modellari hamda malaka oshirish jarayonini kompetensiyaviy va andragogik yondashuvlar asosida loyihalash ilmiy jihatdan ustuvor yo‘nalishlar sifatida tadqiq etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligining tuzilmasi, mazmuni hamda uni takomillashtirishning pedagogik modeli va shart-sharoitlarini ilmiy asoslashga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi real ehtiyojga kelsak, mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o‘quv jarayoniga o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari, jumladan masofaviy ta’lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron portfolio axborot tizimlari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, amaliyot rahbar kadrlarning aynan raqamli boshqaruv, raqamli monitoring va data-driven qaror qabul qilish sohasidagi tayyorgarligiga bo‘lgan real ehtiyojni tobora kuchaytirmoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Hamma sa’y-harakatlarimiz tagida ta’lim bor”[1]. Shu bois oliy ta’lim tizimida rahbar kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmlarini raqamli transformatsiya talablariga moslashtirish muhim ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa, rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish jarayonining mazmun-mohiyatini yoritib berish orqali mazkur jarayon tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish, oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ta’lim ko‘rgazmasi doirasida o‘qituvchilar bilan uchrashuvdagi nutqidan // https://president.uz/oz/lists/view/5798.

takomillashtirish mazmunini yoritib berish, malaka oshirish jarayonida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning pedagogik modeli va shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-son “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 23-sentyabrdagi 797-son “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Malaka oshirish jarayonida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, jumladan, ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari yurtimiz olimlari U.Sh.Begimqulov, R.X.Djuraev, N.N.Azizxodjaeva, A.X.Maxmudov, Q.T.Olimov, N.F.Abdunazarova kabi pedagog olimlar tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, U.I.Inoyatov, S.T.Turg‘unov, M.A.Yuldashev, Ya.O‘.Ismadiyarovlar ning ilmiy tadqiqot ishlarida ta’lim muassasalarini boshqaruvi yo‘nalishida kadrlarni tayyorlash, innovatsion-menejmentni shakllantirish, ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Rahbarlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirish metodologiyasi shuningdek, pedagogik-psixologik jihatlari, andragogik tamoyillari va texnologiyalari, kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirishning konseptual masalalari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan N.V.Vasina, A.A.Verbitskiy, V.Yu.Krichevskiy, Ye.I.Isaev, I.A.Zimnyaya, S.A.Ezopova, Ye.Kudryavtseva, D.A.Novikova, E.S.Simbirsk, Yu.B.Suvorova, V.A.Slasteninlar tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy olimlardan M.Schnitger, G.Yukl, E.Rogers, A.Maslow, W.Hutmacher, F.Herzberg, M.Glozier, D.Bartramlar tomonidan esa ta’lim

tashkilotlarida liderlik, boshqaruv motivatsiyasi va innovatsiyalarni joriy etish masalalari o‘rganilgan.

Biroq, yurtimiz va xorijiy olimlar boshqaruv kompetentligini tashkiliy-metodik, psixologik-pedagogik va shaxsiy-motivatsion jihatdan o‘rganganligiga qaramay, bu muammo aynan oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida – raqamli infratuzilmani mustaqil boshqarish, data-driven qarorlar qabul qilish va raqamli ta’lim muhitida liderlik qilish kontekstida – maxsus va kompleks tarzda o‘rganilmagan, bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining IL4821091576. “Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta’lim va qayta tayyorlash malaka oshirish tizimlarida o‘quv faoliyatini tashkil etish” (2022-2024) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish hamda mazkur jarayonning tuzilmasini aniqlashtirish;

rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish mazmunini takomillashtirish va uni amalga oshirishning pedagogik yondashuvlarini asoslash;

malaka oshirish jarayonida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik modelni takomillashtirish hamda uning metodik ta’minotini asoslash;

malaka oshirish jarayonida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish;

ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish jarayoni olinib, tajriba-sinov ishlari Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bazasida o‘tkazilgan va unga 2022–2024-yillarda malaka oshirgan O‘zbekiston milliy universiteti (70 nafar), Qarshi davlat universiteti (48 nafar), Qoraqalpoq davlat universiteti (57 nafar), Namangan davlat pedagogika instituti (36 nafar) va Termiz davlat pedagogika institutidan (43 nafar) jami 254 nafar rahbar kadr jalb etilgan: tajriba guruhi – 128 nafar, nazorat guruhi – 126 nafar (2022-yilda 83, 2023-yilda 85, 2024-yilda 86 nafar).

Tadqiqotning predmetini oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, test, intervyu, pedagogik eksperiment va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish jarayonining tuzilmasi funksional, intellektual, situatsion va ijtimoiy kompetensiyalarni ta’minlovchi kognitiv-refleksiv asoslar bilan vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda differensial baholash va individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalash orqali aniqlashtirilgan;

rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish mazmuni bilim, qadriyat, kommunikativ va tashkiliy-metodik faoliyat komponentlarini o‘z ichiga olgan shaxsiy-kasbiy sifatlar tizimi sifatida insonga yo‘naltirilgan boshqaruv paradigmasi asosida boshqaruv funksiyalarini professional amalga oshirishga tayyorlik va qobiliyatlilikni ta’minlovchi adaptiv o‘qitish metodlari va refleksiv-diagnostik instrumentlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish jarayoni modeli mazmunli, motivatsion-maqsadli, metodologik va texnologik bloklar o‘rtasidagi teskari aloqani mikroo‘qitish, adaptiv o‘qish va raqamli immersiv texnologiyalar asosida ta’minlash hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va o‘z-o‘zini boshqarish tamoyillarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

malaka oshirish jarayonida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari malaka oshirish jarayonining ichki va tashqi muhitini raqamli imitatsiya vositasida tahlil qilish, rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanish missiya va strategiyalarini shakllantirish hamda boshqaruv funksiyalarini raqamli senariy-modellashtirish orqali amalga oshirishga steykholderlar ishtiroki va tarmoqli hamkorlik mexanizmlarini qo‘shish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Ta’lim sifati menejmenti” yo‘nalishi bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi ishlab chiqilgan;

“Ta’lim menejerining innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi” va “Oliy ta’limni boshqarishda raqamli texnologiyalar” modullarining o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy majmualari ishlab chiqilgan;

“Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetensiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etilgan va ta’lim amaliyotiga joriy etilgan;

oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta’limning muammolilik, integrativlik va amaliy-yo‘nalganlik talablariga javob beradigan boshqaruv kompetentligining funksional-tuzilmaviy komponentlari mazmuni va kompetentlik darajalarini baholash mezonlaridan

rahbarlarni boshqaruv faoliyatiga samarali tayyorlashning nazariy-metodologik va amaliy-metodik asoslarini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati raqamli ta’lim sharoitida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishga doir takliflardan malaka oshirish tizimi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan davlat talablarini ishlab chiqish, boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlaridan malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarni takomillashtirish, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish jarayoni tuzilmasini funksional, intellektual, situatsion, ijtimoiy kompetensiyalarni ta’minlovchi kognitiv-refleksiv asoslar bilan vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda differensial baholash va individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalash orqali aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan rahbar kadrlarning malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan malaka talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 15-avgustdagi 03/14-2794-son ma’lumotnomasi). Natijada, malaka talablarida rahbar kadrlarning raqamli boshqaruvga doir kompetensiyalari tizimi aniqlashtirilgan;

oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish mazmunini bilim, qadriyat, kommunikativ va tashkiliy-metodik faoliyat komponentlarini o‘z ichiga olgan shaxsiy-kasbiy sifatlar tizimi sifatida insonga yo‘naltirilgan boshqaruv paradigmasi asosida adaptiv o‘qitish metodlari va refleksiv-diagnostik instrumentlarni kiritish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetensiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-maydagi № 9507-176a-0876-2731-30f8-4009-6902 sonli nashr ma’lumotnomasi). Natijada, rahbar kadrlarning raqamli boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni boyitilgan;

rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish jarayoni modelini mazmunli, motivatsion-maqsadli, metodologik va texnologik bloklar o‘rtasidagi teskari aloqani mikroo‘qitish, adaptiv o‘qitish va raqamli immersiv texnologiyalar asosida ta’minlash hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va o‘z-o‘zini boshqarish tamoyillarini kiritish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-son “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida mutaxassisligi bo‘yicha mustaqil malaka oshirish tartibiga kiritilgan o‘zgarishlarni aniqlashtirishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 15-avgustdagi 03/14-2794-son ma’lumotnomasi). Natijada, rahbar kadrlarning mustaqil malaka oshirish jarayonlari samaradorligi oshirilgan;

malaka oshirish jarayonida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini malaka oshirish jarayonining ichki va tashqi muhitini raqamli imitatsiya vositasida tahlil qilish, rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanish missiya va strategiyalarini shakllantirish hamda boshqaruv funksiyalarini

raqamli senariy-modellashtirish orqali amalga oshirishga steykholderlar ishtiroki va tarmoqli hamkorlik mexanizmlarini qo‘shish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida 2022–2024-yillarda bajarilgan № IL-4821091576 “Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta’lim va qayta tayyorlash malaka oshirish tizimlarida o‘quv faoliyatini tashkil etish” mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 15-avgustdagi 03/14-2794-son ma’lumotnomasi). Natijada, rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli senariy-modellashtirishning qo‘llanilishi orqali steykholderlar ishtiroki kuchaytirilgan hamda tarmoqli hamkorlik imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta respublika, 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati aks ettirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Malaka oshirish jarayonida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati, mazkur jarayonning tuzilmasi va komponentlari, pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

Ta’limni raqamlashtirish so‘nggi yillarda tayanch tavsifga ega bo‘lib, miqdoriy o‘zgarishlardan (raqamli platformalarning ortib borishi, ommaviy kompyuterlashtirish) sifat bosqichiga (sun’iy intellekt, blokcheyn, katta ma’lumotlar bazalari bilan ishlash) o‘tish jarayoni butun dunyoda ta’lim landshaftini tubdan o‘zgartirmoqda. Oliy ta’limda raqamli transformatsiya uch asosiy yo‘nalishda amalga oshirilmoqda: ta’limning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish; talabalarning o‘quv faoliyati natijalarini raqamli baholashni o‘z ichiga oladigan o‘quv-metodik materiallar, instrumentlar va xizmatlarni rivojlantirish; o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etishning yangi modellarini ishlab chiqish va ommalashtirish.

Jahon ta’lim bozorida ma’lumotlar va voqealar tahlili uchun yetakchi platforma hisoblangan HolonIQ kompaniyasi versiyasiga ko‘ra, bo‘lajak

mutaxassislarni tayyorlashga doir innovatsion jarayonlarning asosiy trendlariga quyidagilar kiradi: sun’iy intellektni faol qo‘llash orqali o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va maqbullashtirish; kreativlik – AR- va VR-mashg‘ulotlarida nostandart yondashuvlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish; mikro o‘qitish – katta hajmdagi axborotlarni kichik bloklarga bo‘lib o‘qitish metodi; hamda Coursera, iSpring, Skyeng kabi onlayn-platforma va agregatlar orqali guruhiy yoki individual mashg‘ulotlarni tashkil etish. Boshqaruv faoliyati nazariyasi va amaliyoti ko‘p asrlik tajribaga ega bo‘lsa-da, uning mafkurasi doimo o‘zgarib turadi, bu esa oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida ham boshqaruvning yangi strategiyasini egallashni taqozo etadi.

Mavzuning ijtimoiy zaruriyati BMTning “2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDGs) hujjatida ta'lim tizimi rahbar kadrlarining moslashuvchan va maxsus kompetensiyalar tizimini rivojlantirish zarurligi qayd etilganligi bilan ham belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga doir Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarida rahbar kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish vazifalari belgilangan. Bu me‘yoriy-huquqiy asos rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish jarayonining tuzilmasi va komponentlarini ilmiy jihatdan aniqlashtirishni, shuningdek uni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida belgilaydi.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini talqin qilishga doir ko‘plab ilmiy yondashuvlar mavjud. Boshqaruv atamalarining izohli lug‘atida “kompetensiya” mansabdor shaxsning shaxsiy potensiali, ma’lum bir sohani rivojlantirishda ishtirok etishga imkon beradigan malakasi sifatida izohlangan. Tadqiqot doirasida ta’lim sohasini boshqarish nuqtai nazaridan mazkur tushuncha ta’lim tashkiloti faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, tahlil qilish, amalga oshirish va korreksiyalashga doir rahbar kadrning boshqaruvga oid bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida talqin qilindi. Ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish natijasida kompetentlilik – shaxsning kasbiy va hayotiy faoliyatga hamda subyektiv sifatlarni (mustaqillik, mas’uliyatlilik, motivatsion-qadriyatli tanlov) namoyon etishga qobiliyati va tayyorligini ifodalovchi integrativ xislat ekanligi asoslandi.

Shu asosda oliy ta’limni raqamlashtirish nuqtai nazaridan rahbar kadrning boshqaruv kompetentligi – raqamli infratuzilma hamda ta’limiy va ilmiy faoliyatni raqamlashtirish jarayonlarida mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish qobiliyati, ya’ni raqamli ta’lim muhitini samarali boshqarishga tayyorlik sifatida belgilandi. Boshqaruv faoliyatining struktur komponentlarini hisobga olish orqali rahbar kadrlarning informatsion, loyihaviy, tashkiliy, mobilizatsion, pedagogik va nazoratga doir maxsus funksiyalari aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalari va boshqaruv amaliyotini tahlil qilish asosida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligi tuzilmasiga xos to‘rtta o‘zaro bog‘liq va shartlangan komponent aniqlashtirildi: **kognitiv, tashkiliy, kommunikativ va refleksiv-qadriyatli**. Kognitiv komponent kasbiy-pedagogik, menejment va

raqamli texnologiyalarga doir bilimlarga ega bo‘lish hamda ularni boshqaruv faoliyatiga samarali qo‘llay olishni taqozo etadi. Tashkiliy komponent qadriyatli yo‘nalishlar bilan bog‘liqlikda boshqaruv faoliyatini qayta tashkillashga ustanovka hamda jamoani yuqori natijaviylikka va innovatsiyalarni joriy etishga motivlashtirishni ifodalaydi. Kommunikativ komponent empatiyaga xos ustanovkalar asosida sheriklarning holatiga moslashish hamda hamfikrlilar va steykxolderlar jamoasini shakllantirishga intiluvchanlikni talab etadi. Refleksiv komponent esa boshqaruv faoliyatida o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash, sanogen refleksiyaga moyillikni shart qilib qo‘yadi. O‘tkazilgan tahlillar qadriyatli yo‘naltirilganlikning – ichki anglanganlik va kasbiy-shaxsiy ehtiyojlar integratsiyasining – nazariy jihatdan yetarli yoritilmaganligini ko‘rsatdi, shu sababli aksiologik jihat alohida – refleksiv-qadriyatli komponent tarkibida – ajratib ko‘rsatildi (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlarda boshqaruv kompetentligini takomillashtirish tuzilmasi

Nazariy tahlil rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligini takomillashtirish ko‘p qirrali va integrativ jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Uning tuzilmasi funksional, intellektual, situatsion va ijtimoiy kompetensiyalarning kognitiv, tashkiliy, kommunikativ hamda refleksiv-qadriyatli komponentlar bilan o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Xorijiy tajriba va nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish natijalari rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligining empirik holatini o‘rganish va uni takomillashtirish modelini ishlab chiqish uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Boshqaruv kompetentligining mazmuni sakkiz yo‘nalish orqali aniqlashtirildi: strategik, raqamli, liderlik, analitik, qaror qabul qilish, o‘zgarishlarni boshqarish, risk-menejment va data-driven management. Analitik, qaror qabul qilish va data-driven management kompetentliklari kognitiv; strategik, o‘zgarishlarni boshqarish va risk-menejment tashkiliy komponentga; liderlik kommunikativ komponentga kiritildi. Raqamli kompetentlik esa barcha komponentlarni integratsiyalovchi xususiyat sifatida belgilandi. Bu taqsimot kompetentliklarni rivojlantirishda ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilash imkonini berdi.

Xorijiy tajribada AQShda kreativ fikrlash, emotsional aql va raqamli boshqaruvga yo‘naltirilgan modulli dasturlar; Yaponiyada amaliyot va refleksiyaga asoslangan metodlar; Janubiy Koreyada “Managerial Internship” va “Reflective Learning” mexanizmlari qo‘llanilishi aniqlandi. Singapur tajribasida reflektiv o‘rganish, rezilyentlik, o‘ziga ishonch, samarali muloqot va ta’lim siyosatiga ta’sir ko‘rsatish sifatlariga ustuvorlik beriladi. Yevropa tajribasida esa raqamli platformalarga asoslangan moslashuvchan modulli ta’lim rivojlangan. Ushbu tajribalar asosida O‘zbekiston sharoitida modulli va amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlarni joriy etish, refleksiv o‘rganishni malaka oshirishga integratsiyalash hamda amaliy stajirovkalarni kengaytirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirish shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligi shakllanganlik holati, malaka oshirish dasturlarini loyihalash, boshqaruv kompetentligini takomillashtirish modeli hamda uni amalga oshirishning shakl va metodlari yoritilgan.

Oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlarning malaka oshirish kurslari uchun mo‘ljallangan yangi o‘quv dasturlarini loyihalash, mavjud bo‘shliqlarni aniqlash hamda boshqaruv kompetentligiga doir komponentlarning rivojlanganlik holatini aniqlash maqsadida empirik tadqiqot amalga oshirildi. Rahbar kadrlarda boshqaruv kompetentligining rivojlanganligini baholash uchun struktur komponentlarga xos parametrlar – kasbiy-pedagogik, menejment va raqamli texnologiyalarga doir bilimlar va ularni amaliyotda qo'llay olish, raqamlashtirilgan ta’limiy-ilmiy faoliyatni tashkil eta olish, raqamli kommunikatsiya va mustaqil raqamli menejmentni amalga oshirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash ko‘nikmasi kabilar – asos qilib olindi.

Diagnostika natijalari asosida “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda “Ta’lim tizimi menejmenti” va “Ta’lim sifati menejmenti” yo‘nalishlari malaka talablariga tayangan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi loyihalashtirildi. Dastur tayyorlov (me’yoriy-huquqiy asoslarni tahlil qilish, boshqaruv kompetentligining tarkibiy asoslarini va rivojlanganlik darajasini o‘rganish, texnik topshiriq hamda taqvim-rejani shakllantirish) va mazmunli (malaka oshirishning maqsad-vazifalarini, dastur mazmuni tuzilishini aniqlashtirish, joriy etish shakl va metodlarini tanlash) bosqichlarini o‘z ichiga oldi. Dastur blok-modulli asosga ega bo‘lib, 12 ta modulni qamrab oldi, ulardan tadqiqot predmetidan kelib chiqqan holda “Ta’lim menejerining innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi” va “Oliy

ta’limni boshqarishda raqamli texnologiyalar” modullari ta’limiy tajriba-sinov ishlari uchun dominant modul etib belgilab olindi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan izlanishlar rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishda kasbiy tayyorgarlik jarayonlari mazmuni hamda kompetensiyalarga asoslangan ta’lim dasturlari bilan raqamli ta’lim muhiti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlashuv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Shunga ko‘ra, oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning tashkiliy-funksional mexanizmlarini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi (2-rasm).

Model boshqaruv kompetentligini takomillashtirish jarayonini imitatsiyalashga imkon beruvchi kompyuterli modellashtirish usuli asosida, o‘quv jarayoni mantig‘ini hisobga olgan holda, maqsad-vazifalar, komponentlar, tashkiliy shakl-metodlar va natijalarni baholash ko‘rsatkichlarini doimiy aniqlab, tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi. Model besh o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat: **maqsadli** komponent – rahbar kadrlarning o‘quv, ilmiy-innovatsion va boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirish maqsadlari ierarxiyasini; **metodologik** komponent – kompetensiyaviy, aksiologik, tizimli va faoliyat (aktivlik) yondashuvlarni hamda boshqaruv uslublarini (avtoritar, demokratik, sust, individuallashgan); **mazmunli** komponent – uzviylik, izchillik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan mustaqil va bevosita malaka oshirish jarayonini; **texnologik** komponent – mikroo‘qitish tizimiga asoslangan umummadaniy, kasbiy-loyihalash va ijodiy bosqichlarni o‘z ichiga olgan shakl, metod va vositalarni; **natijaviy-baholovchi** komponent esa kognitiv, tashkiliy, kommunikativ, refleksiv-qadriyatli mezonlar bo‘yicha produktiv, adaptiv va dezadaptiv darajalarni belgilaydi.

Modelni amaliyotga tatbiq etish rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini ham takomillashtirishni taqozo etdi. Bunga ko‘ra, oliy ta’limning ichki va tashqi muhitini raqamli imitatsiya vositasida o‘rganish, olingan ma’lumotlar asosida muassasaning missiya va strategiyalarini shakllantirish, asosiy va aloqador boshqaruv funksiyalarini raqamli ssenariy-modellashtirish orqali amalga oshirish, shuningdek steykxolderlar ishtirokini va tarmoqli hamkorlik mexanizmlarini joriy etish – boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning zaruriy pedagogik shart-sharoitlari sifatida asoslandi. Ushbu shart-sharoitlar modelning mazmunli, motivatsion-maqsadli, metodologik va texnologik bloklari o‘rtasidagi teskari aloqani raqamlashtirish sharoitiga muvofiq amalga oshirish mantig‘iga tayanadi.

Tadqiqot doirasida boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari uch o‘zaro bog‘liq guruhga birlashtirildi: institutsional-texnologik zaminni (my.bimm.uz platformasi asosidagi to‘rt bosqichli tatbiq mexanizmi, modulli o‘quv tizimi) tashkil etuvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar; o‘quv jarayonining mazmun-metodik ta’minotini (interaktiv mashg‘ulotlar, case-study, rolli o‘yinlar) belgilovchi didaktik shart-sharoitlar; hamda rahbar shaxsining motivatsion-emotsional tayyorligini (emotsional boshqaruv treninglari, refleksiv portfellar) ta’minlovchi psixologik-pedagogik shart-sharoitlar.



2-rasm. Oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning tashkiliy-funksional mexanizmlarini takomillashtirish modeli

Ushbu uch guruh shart-sharoitning uyg‘un birligi ishlab chiqilgan pedagogik modelning amaliyotdagi samaradorligini ta’minlovchi zaruriy asos hisoblanadi.

Model asosida dominant modullar bo‘yicha ma’ruza videoroliklari, amaliy va nazorat topshiriqlari ishlab chiqildi. Bunda mikroo‘qitishning uch bosqichli texnologiyasiga asoslanildi: bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; ularni amaliyotda qo‘llash; mikromashg‘ulotni tanqidiy tahlil qilish. Mikroo‘qitish – raqamli transformatsiya sharoitida o‘quv materialini kichik pedagogik bloklarda yetkazish orqali tinglovchilarning ta’limiy ehtiyojlarini qondirish, karyera va tashkiliy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi innovatsion formatdir. U rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini izchil va bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan pedagogik model tizimlilik, izchillik, muammoga va amaliyotga yo‘nalganlik, uzviylik hamda uzluksizlik tamoyillariga asoslanadi. Tizimlilik model komponentlarining o‘zaro bog‘liq faoliyatini, izchillik kompetentlikning sodda ko‘nikmalardan murakkab boshqaruv vazifalarigacha bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlaydi. Muammoga yo‘nalganlik real boshqaruv vaziyatlari, case-study va vaziyatli topshiriqlardan foydalanishni, amaliy yo‘nalganlik esa barcha bosqichlarning rahbarlik faoliyatiga xizmat qilishini nazarda tutadi. Uzviylik va uzluksizlik kompetentlikni doimiy professional rivojlanish jarayonida takomillashtirishni belgilaydi.

Raqamli texnologiyalar model komponentlariga integratsiya qilingan. Kognitiv komponentda sun’iy intellekt asosidagi tahlil va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, kommunikativ komponentda LMS va videokonferensiya platformalarida samarali hamkorlik, refleksiv-qadriyatli komponentda esa raqamli portfel va avtomatlashtirilgan monitoring orqali o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Shu jihatdan model an’anaviy boshqaruv ta’limidan farqli ravishda raqamlashtirish sharoitiga moslashtirilgan kompleks vosita hisoblanadi.

Mazkur modelni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi diagnostik, rivojlantiruvchi, refleksiv va baholash bosqichlarining izchil hamda o‘zaro bog‘liq amalga oshirilishiga asoslanadi. Dastlab diagnostik bosqichda rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligining mavjud holati so‘rovnoma, kuzatuv, ekspert baholash, suhbat va raqamli monitoring vositalari orqali aniqlanadi. Olingan natijalar asosida individual rivojlanish ehtiyojlari belgilanib, rivojlantiruvchi bosqichda seminar-treninglar, case-study, rolli o‘yinlar, loyiha faoliyati, shuningdek, sun’iy intellekt, LMS va boshqa raqamli vositalar asosidagi amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Refleksiv bosqichda metodik suhbatlar, guruhli muhokamalar, refleksiv portfel va o‘z-o‘zini tahlil qilish vositalari orqali rahbarning o‘z faoliyatiga tanqidiy baho berish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Baholash bosqichida esa erishilgan natijalar dastlabki diagnostika ko‘rsatkichlari bilan qiyoslanib, zarur hollarda rivojlantirish jarayoniga korreksiyalar kiritiladi.

Mexanizm samaradorligi boshqaruv kompetentligining kognitiv, tashkiliy, kommunikativ va refleksiv-qadriyatli mezonlari orqali aniqlanadi. Ushbu mezonlar bilimlarni amalda qo‘llash, boshqaruvni tashkil etish, samarali muloqot va hamkorlik hamda o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlarini ifodalaydi. Natijalarning teskari aloqa orqali diagnostika va rivojlantirish jarayoniga qaytarilishi modelning uzluksizligi, moslashuvchanligi va korreksion xususiyatini ta’minlaydi (3-rasm).



3-rasm. Oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirish mexanizmi

Taklif etilgan mexanizm rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini bir martalik ta'limiy ta'sir asosida emas, balki diagnostika – rivojlantirish – refleksiya – baholash – teskari aloqa sikli asosida uzluksiz takomillashtirishni nazarda tutadi. Mexanizmning o'ziga xosligi boshqaruvga oid nazariy bilimlar, amaliy boshqaruv faoliyati, raqamli texnologiyalar va refleksiv jarayonlarning yagona tizimga integratsiya qilinganligi bilan belgilanadi. Natijada rahbar kadrlarning boshqaruv vaziyatlarini tahlil qilish, asoslangan qarorlar qabul qilish, mavjud resurslarni samarali tashkil etish, jamoa bilan konstruktiv hamkorlik qilish hamda o'z faoliyatini muntazam baholab va takomillashtirib borish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa ishlab chiqilgan modelning amaliy yo'naltirilganligi, moslashuvchanligi va boshqaruv kompetentligini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishini asoslaydi.

Dissertatsiyaning **"Rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini takomillashtirish samaradorligi"** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi, ishtirokchilarning institutsional-yillik tarkibi hamda natijalarning statistik tahlili yoritilgan. Tajriba-sinov ishlari 2022–2024-yillarda Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (OTTQMOI) bazasida 254 nafar rahbar kadr ishtirokida aniqlash, shakllantirish va nazorat bosqichlarida o'tkazildi. Pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, test, intervyu, pedagogik eksperiment va matematik-statistik tahlil metodlari qo'llanildi. Boshqaruv kompetentligi kognitiv, tashkiliy, kommunikativ va refleksiv-qadriyatli mezonlar bo'yicha produktiv (yuqori – 5 ball), adaptiv (o'rta – 4 ball), dezadaptiv (past – 3 ball) darajalarda baholandi (1-jadval).

1-jadval

Rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligi mezonlari bo‘yicha baholash darajalari va ko‘rsatkichlari (indikatorlar)

T/r	Mezon	Baholash darajalari va ko‘rsatkichlari		
		Produktiv (yuqori-5)	**Adaptiv (o‘rta-4)**	**Dezadaptiv (past-3)**
1	**Kognitiv mezon**	Kasbiy-pedagogik, menejment va raqamli texnologiyalarga doir bilimlarni chuqur egallagan; ta’limni boshqarishning nazariy asoslarini erkin biladi; boshqaruvga oid bilimlarni amaliy vaziyatlarda mustaqil va ijodiy qo‘llay oladi; raqamli ta’lim muhitini boshqarish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni tahlil qila oladi.	Boshqaruv va menejmentga oid asosiy bilimlarga ega, lekin ularni murakkab yoki nostandart vaziyatlarda qo‘llashda qiynaladi; raqamli texnologiyalar borasidagi bilimlari umumiy xarakterda, chuqur emas; nazariy asoslarni biladi, ammo amaliyot bilan bog‘lashda boshqalarning yordamiga muhtoj.	Boshqaruv nazariyasi va raqamli texnologiyalarga doir bilimlari yuzaki yoki tizimlashmagan; boshqaruv muammolarini to‘g‘ri shakllantira olmaydi; egallagan bilimlarni amaliy boshqaruv faoliyatida qo‘llay olmaydi.
2	**Tashkiliy mezon**	Jamoani yuqori natijaviylikka erkin motivlashtiradi; vaqtni samarali boshqaradi; raqamli texnologiyalardan boshqaruv faoliyatida faol va samarali foydalanadi; pedagogik diagnostika va monitoringni muntazam va tizimli olib boradi; innovatsiyalarni joriy etishga doimiy intiladi.	Jamoaviy ishni tashkil eta oladi, lekin bu ko‘pincha nazorat ostida yoki qisman samarali bo‘ladi; vaqtni boshqarishda vaqti-vaqti bilan qiyinchiliklarga duch keladi; raqamli vositalardan foydalanadi, ammo ularni to‘liq salohiyati bilan qo‘llamaydi.	Jamoaviy ishni tashkil etish ko‘nikmasi zaif; vaqtni boshqara olmaydi; raqamli texnologiyalardan boshqaruv faoliyatida deyarli foydalanmaydi; monitoring va diagnostikani muntazam olib bormaydi.
3	**Kommunikativ mezon**	Muloqot jarayonida sheriklarning holatiga erkin moslashadi (empatik); hamfikrlilar va steykxolderlar jamoasini muvaffaqiyatli shakllantiradi; ziddiyatli vaziyatlarda konstruktiv yechim topa oladi; ichki va tashqi hamkorlik aloqalarini samarali yo‘lga qo‘yadi.	Asosiy muloqot ko‘nikmalariga ega, lekin murakkab yoki keskin vaziyatlarda moslashish qiyin kechadi; hamkorlik aloqalarini o‘rnatadi, ammo ularni barqaror rivojlantirmaydi.	Sheriklar bilan muloqotda moslashuvchanlik yetishmaydi; jamoa va steykxolderlar bilan samarali aloqa o‘rnata olmaydi; ziddiyatli vaziyatlarda mos yechim topa olmaydi.
4	**Refleksiv-qadriyatli mezon**	Boshqaruv faoliyatida o‘z-o‘zini muntazam va chuqur tahlil qiladi va baholaydi (sanogen refleksiya); insonparvar qadriyatlarni kasbiy faoliyatida izchil qo‘llaydi va ularni dolzarb deb hisoblaydi; xatolaridan xulosa chiqarib, o‘zini izchil takomillashtiradi.	O‘z-o‘zini tahlil qilishga qisman intiladi, lekin bu tizimli emas; qadriyatlarga munosabati betaraf yoki vaziyatga qarab o‘zgaruvchan.	O‘z-o‘zini tahlil qilish va baholashga deyarli intilmaydi; insonparvar qadriyatlarni boshqaruv faoliyatida inkor etadi yoki ahamiyatsiz deb hisoblaydi.

Tinglovchilar tajriba guruhi (TG – 128 nafar) va nazorat guruhiga (NG – 126 nafar) taqsimlandi. TG da “Ta’lim tizimi menejmenti” va “Ta’lim sifati menejmenti” yo‘nalishlarining har biridan 64 nafardan, NG da esa 63 nafardan tinglovchi qatnashdi. Shunday qilib, har bir guruhda ushbu ikki yo‘nalishning ulushi 50 foizdan tashkil etdi.

Malaka oshirish jarayonining tashkiliy bazasi OTTQMOI bo‘lib, ishtirokchilarning institutsional tarkibi beshta OTM bilan bog‘liq (2-jadval).

2-jadval

Ishtirokchilarning OTM va yillar bo‘yicha taqsimoti

Oliy ta’lim tashkiloti	2022	2023	2024	Jami	Ulushi %
O‘zbekiston milliy universiteti	23	21	26	70	27,56
Qarshi davlat universiteti	18	16	14	48	18,90
Qoraqalpoq davlat universiteti	19	22	16	57	22,44
Namangan davlat pedagogika instituti	12	11	13	36	14,17
Termiz davlat pedagogika instituti	11	15	17	43	16,93
Jami	83	85	86	254	100,00

